

**JAMOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI
HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH: NORMATIV ISLOHOT YO'NALISHLARI
VA MEXANIZMLAR**

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d.

Saidov Sharofiddin Abdug'aniyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361204>

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini samarali joriy etish va barqaror ishlashini ta'minlaydigan huquqiy asoslarni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda DXShning xavfsizlik sohasidagi qo'llanish doirasi va chegaralari, davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari hamda xususiy sherik ishtirokini legitimlashtiruvchi normativ mezonlar o'rtasidagi muvozanat masalasi markazga qo'yiladi. Shartnomaviy tartibga solishning sifatini oshirish, risklarni taqsimlash va javobgarlikni aniq belgilash, moliyalashtirish va kafolat mexanizmlarini standartlashtirish, davlat nazorati va auditning protsessual asoslarini kuchaytirish kabi yo'nalishlar yoritiladi.

Alohida e'tibor KPI/SLA asosida natijadorlikni baholashning huquqiy modeli, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi komplaens, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi hamda kiberxavfsizlik talablarini DXSh shartnomalariga integratsiya qilish masalalariga qaratiladi. Xulosa qismida jamoat xavfsizligi bo'yicha DXSh loyihalarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga doir konseptual takliflar, normativ-huquqiy o'zgartirishlar yo'nalishlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; normativ islohot; huquqiy asoslar; shartnomaviy mexanizm; risklarni taqsimlash; KPI/SLA; davlat nazorati; komplaens; ma'lumotlar himoyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются пути развития правовых основ, обеспечивающих эффективное внедрение и устойчивое функционирование государственно-частного партнёрства (ГЧП) в сфере общественной безопасности. В центре внимания — пределы и условия применимости ГЧП, баланс между конституционной обязанностью государства по обеспечению безопасности и нормативными критериями, легитимирующими участие частного партнёра.

Анализируются направления повышения качества договорного регулирования, стандартизации механизмов распределения рисков и ответственности, финансовых моделей и гарантий, а также укрепления процессуальных основ государственного контроля и аудита. Отдельно исследуются правовая модель оценки результативности на основе KPI/SLA, управление конфликтом интересов, требования прозрачности и антикоррупционного комплаенса, интеграция стандартов защиты персональных данных и кибербезопасности в договоры ГЧП. В заключении формулируются концептуальные предложения по совершенствованию нормативно-правовой базы и практико-ориентированные рекомендации для укрепления правовой устойчивости ГЧП-проектов в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; нормативная реформа; правовые основы; договорное регулирование; распределение рисков; KPI/SLA; государственный контроль; комплаенс; защита данных.

Abstract. This article explores pathways to strengthen the legal foundations for implementing and sustaining public–private partnerships (PPPs) in the public safety domain. It focuses on defining the scope and limits of PPPs in security-related functions and on balancing the state’s constitutional duty to ensure public safety with regulatory criteria that legitimize private-sector involvement. The paper examines how to improve contract governance through clearer liability regimes, standardized risk-allocation clauses, financing and guarantee mechanisms, and more robust procedural rules for public oversight and audit. Particular attention is given to the legal design of performance management tools (KPIs/SLAs), conflict-of-interest management, transparency and anti-corruption compliance, and the integration of personal data protection and cybersecurity standards into PPP contracts. The article concludes with policy-oriented recommendations and reform directions aimed at enhancing legal certainty and institutional resilience of PPP-based public safety initiatives.

Keywords: public–private partnership; public safety; legal reform; regulatory framework; contract governance; risk allocation; KPIs/SLAs; public oversight; compliance; data protection.

Bugungi taxlikali zamonda yashayotgan har bir insondan “Siz uchun dunyoda eng ulug‘ ne‘matlardan biri nima?” deb so‘rasangiz, albatta, “tinchlik”, deb javob beradi.

Shukrlar bo‘lsinki, millatidan qat’iy nazar aholisi ahil va hamjihat yashayotgan ozod va obod yurtimizda tinchlik xotirjamlikka va barqaror rivojlanishga erishilmoqda.

Darhaqiqat, har bir davlat o‘z hududida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Mazkur islohotlar esa juda katta moliyaviy resurslar talab etiladi. Shu o‘rinda huquqshunos olimlardan O.A.Kamalov va N.A.Kuldashevlar o‘z ilmiy asarlarida “xattoki, iqtisodiyoti yuqori davlatlar ham bu tizimni moliyaviy ta‘minlashda faqatgina budjet mablag‘lariga tayanib qolmagan. Ya‘ni, ular tizimni yaxshilashda davlat-xususiy sheriklikdan samarali foydalanmoqda”¹ degan fikrlari juda o‘rinlidir. Darhaqiqat, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni davlat-xususiy sherikchilik asosida tinchligi va xavfsizligini ta‘minlash nafaqat huquqni muxofaza qilish organlarining ustuvor vazifasi balki barcha yuridik va jismoniy shaxslarning fuqarolik burchi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan 2021 yil 29 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda mamlakatda jamoat xavfsizligiga doir huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolar hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorlik qilish yo‘lga qo‘yilgan.

¹ Камалов О.А., Кулдашев Н.А. “Жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш” // Сиёсатшунослик, ҳуқуқ ва ҳалқаро муносабатлар журнали / 06.2022 й

Albatta, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash bevosita davlatning strategik vazifasi hisoblanadi.

Hech kimga sir emaski, dunyoda kundan-kunga kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish, uning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblarini joriy etish, sohaga zamonaviy texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini olib kirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aynan ushbu zarurat bugungi kunda jamoat xavfsizligi tizimida ham davlat sherigi va xususiy sherikning o'z resurslarini birlashtirishni taqazo etmoqda. Ammo, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, ularning xizmatlaridan tizimli foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar bugungi kunda mamlakatda yetarli darajada qabul qilinmaganligi hech kimga sir emas.

Shu o'rinda, 2019 yil 10 mayda O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"²gi O'RQ-537-son qonuni qabul qilingan bo'lsada, ammo mazkur norma bugungi kunda jamoat xavfsizligi davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish bilan bog'liq munosabatlarni ravnaqi uchun yetarli darajada xizmat qilmapti desak o'rinli bo'ladi. Mamlakatda davlat-xususiy sherikchilik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashning nafaqat huquqiy asoslarini takomillashtirish balki uni iqtisodiy asoslarini ham yangi bosqichga olib chiqish Yangi O'zbekistonning ustuvor vazifalaridan biri desak o'rinli bo'ladi.

Mazkur tadqiqot ishining "Davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlarini" deb nomlangan 1.2-paragrifida bugungi kunda mamlakatda davlat-xususiy sherikchilik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashga asos bo'luvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tizimli ketma-ketligi tahlil qilingan bo'lsada, mazkur paragrifda huquqshunos olimlar, halqaro tajriba va davlat-xususiy sherikchilik asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq normalarning huquqiy jihatlariga kengroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, ushbu davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi institut barcha mustaqil davlatlarda budjet yetishmasligi sababli iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy sohalarida davlat resurslarining kechikishini yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan davlat-xususiy sheriklik aynan ijtimoiy sohada vujudga kelganligi to'g'risida fikr bildiradilar.

Masalan, I.Tulukcu o'zining ilmiy tadqiqotlarida — Tarixning ilk davrlaridan boshlab davlat-xususiy sheriklik mavjud bo'lganligini, bunga asos sifatida qadimgi davrlarda ko'plab jamoat joylari (portlar, bozorlar va boshqalar) va infratuzilma xizmatlari (mehmonxonalar, hammomlar va boshqalar) davlat tomonidan xususiy sektorga imtiyoz sifatida berilganligini³, aytadi.

²Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилик базаси // <https://lex.uz/docs/4329270>

³İsmail TULUKCU. Kamu-Özel Ortaklıkları: Farklı Kurumsal İşleyiş Ve Hedefler Varlığında Yönetişim Beceriler (Public-Private Partnerships: Governance Skills In Different Institutional Operations And Purposes) <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/844708>

Albatta I.Tulukcu fikrini butunlay rad qilib bo'lmaydi. Garchi o'sha davrda yuqorida keltirilgan obyektlar va xizmatlarni tashkil etish bevosita davlatning funksiyasiga kirmagan bo'lsa-da, ammo ular aholi manfaati uchun tashkil qilingan va ularni nazorat qilish ham davlat zimmasida bo'lgan.

Ta'kidlash kerakki, xususiy sheriklik asosida hamkorlik qiladigan sohalar aholi va jamiyatning talabidan (ehtiyojidan) kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda mamlakatda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik amalda bo'lsada, u davlat resurslari (budjet mablag'lari, yer va boshqa mulklar) sarflanishini nazorat qilish uchun davlat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi⁴.

Darhaqiqat milliy qonunchiligimizda amalga oshirish mumkin bo'lgan davlat-xususiy sheriklik yo'nalishlari keltirilgan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa sohalarda ham davlat-xususiy sheriklik tashkil qilinishi ko'zda tutilgan. Ammo, davlat-xususiy sheriklik tatbiq etilmaydigan sohalar ham mazkur qonunda aniq qilib belgilab qo'yilgan⁵.

Davlat-xususiy sheriklik davlat infratuzilmasining turli sohalarida loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Jamoat xavfsizligi o'z xususiyatiga ko'ra ijtimoiy sohaning alohida yo'nalishi hisoblanadi va milliy qonunchiligimizda jamoat xavfsizligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni tashkil etish bo'yicha ta'qiq mavjud emas. Har qanday mamlakatda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishi uchun avvalo qonunchilik bazasi zarur. Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning birlamchi huquqiy asoslari yaratilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4913 son Qarori⁶, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 21 aprelda "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 232-son qarori⁷ shular jumlasidandir.

⁴ Килинкар В., Шамсиев Б., Камалов Ф. Государственно-частное партнерство: общее понятие и стандарты национального регулирования <https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2018/october/4/a-public-private-partnership-general-concept-and-standards-of-national-regulation>

⁵ "Davlat-xususiy sheriklik t'g'risida"gi Qonunning 1-moddasi ikkinchi qismida "mahsulot taksimoti t'g'risidagi bitimlarga va davlat xaridlari sohasiga" nisbatan davlat-xususiy sheriklik tatbiq etilmaydigan sohalar to'g'risida ta'kidlangan.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 декабрдаги "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar t'g'risida"gi PQ-4913 son Qarori // <https://lex.uz/docs/5146298>

⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 21 апрелдаги "Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасига хусусий секторни жалб этишга доир қўшимча чора тadbirlar t'g'risida"gi 232-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5382965>

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida qabul qilinayotgan normalarning maqsadi, vazifasi va belgilangan chora-tadbirlardan bilish mumkinki, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlashda subyektlarning o‘z resurslarini birlashishida ikki taraflama manfaatdorlik mavjud. Bunda faqat xususiy sektorlar emas, balki davlat va jamiyat ham manfaatdordir. Xususan, xususiy sektorlar o‘zlarining mablag‘ini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, davlatning manfaatdorligi, bevosita aholi va jamiyat manfaatdorligi bilan qo‘shilib ketadi. Ushbu manfaatdorlikni bevosita jamoat xavfsizligi nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, tizimning moddiy-texnik bazasi zamonaviylashib, aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilish tizimining samaradorligi ortadi. Pirovardida mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlash darajasi sifat jihatidan ortishi va “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya amalda ta‘minlanishiga erishiladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalari yana bir davlat-xususiy sheriklik asosida jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikni oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi “xususiy izquvarlik” institutini huquqshunos olimlardan O.A.Kamalov va N.A.Kuldashevlarning ilmiy asoslangan fikrlarini qo‘llab-quvvatlagan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta‘minlash ham milliy qonunchiligimiz, ham ijtimoiy hayotimiz uchun nisbatan yangi soha hisoblanganligi sababli O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Qonunchilik bazasini takomillashtirish, bir qator yangi me‘yoriy hujjatlarni qabul qilish zarur. Xususan, “Konsessiya to‘g‘risida”gi qonun bugungi kunda quyidagi sabablarni hisobga olgan holda yangi tahrirda qayta ko‘rib chiqishni va takomillashtirishni talab qiladi:

✓ *birinchidan*, konsessionerlar doirasi xorijiy investorlar bilan cheklanganligi, davlat-xususiy sheriklik ning potentsial loyihalarida ishtirok etishda mahalliy tadbirkorlar imkoniyatini cheklaydi;

✓ *ikkinchidan*, qonun xo‘jalik faoliyatini konsessiya predmeti sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy faoliyat turlari, ularni mavjud moddiy aktivlar (molmulk, er uchastkalari va er osti boyliklari) bilan qat‘iy bog‘laydi, konsessiya bo‘yicha zamonaviy nuqtai nazar esa davlat tomonidan xususiy firmaga nomukammal raqobat sharoitida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqini berishdir (konsessionerda muayyan "bozor kuchi mavjud");

✓ *uchinchidan*, qonun 15 yil (umumiy qabul qilingan standartda esa 50 yil) konsessiya shartnomasining davomiyligini cheklaydi, bu esa uzoq muddatli qaytarish muddatlari bilan yirik obektlar bo‘yicha shartnomalar tuzishni cheklaydi.

Xalqaro ekspertlar konsessionerlarni tanlash, bunday kelishuvlarni amalga oshirish va tugatish jarayonlar darjasini nisbatan past baholaydilar.

Umuman olganda, konsessiya masalalari bo‘yicha qonun hujjatlari doirasida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini, konsessioner xizmatlariga tariflarni shakllantirish usullarini rivojlantirish, mavjud davlat mulkini konsessiyaga o‘tkazish

bo'yicha konsessiya modelini ishlab chiqish, konsessiyaga o'tkazilmaydigan obektlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, uning yangi modellarini joriy etish yo'li bilan konsessiyani qo'llash sohalarini kengaytirish masalalari ishlab chiqilishi kerak.

Bundan tashqari, bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmining afzallik va kamchiliklarini iqtisodchi olim N.T.Tilabov⁸ ilmiy qarashlarini qo'llab-quvvatlagan holda quyidagi mazmunda belgilash maqsadga muvofiqdir. **Afzalliklarga:**

- ❖ davlat va xususiy sektor o'rtasida xatarlar, majburiyatlar va huquqlarni muvozanatli taqsimlash;

- ❖ davlat budjeti yukini kamaytirish;

- ❖ xususiy sektorga huquqlarni o'tkazish davlat mulkidan foydalanish va egalik qilish tartibi bundan mustasno (qurilish va foydalanish uchun shartnoma bundan mustasno);

- ❖ davlat-xususiy sheriklik obektini saqlash uchun davlat xarajatlarining shaffofligini oshirish (shartnoma normalarining amal qilishi va operator tomonidan qarz mablag'larini jalb qilish, ya'ni kreditorlar monitoringini olib borish);

- ❖ operator (xususiy sektor) faoliyatiga ta'sir etuvchi richaglarni saqlash);

- ❖ yangi texnologiyalarni tezroq qabul qilish;

- ❖ iste'molchilarning ehtiyojlariga xizmatlarning aniq yo'nalishi;

- ❖ fond bozori va bank sektorini rivojlantirishni rag'batlantirish;

- ❖ xususiy ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilish;

- ❖ kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;

- ❖ davlat va mahalliy organlar bilan xususiy sektor tomonidan tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shakllarining xilma-xilligi.

Shuningdek, **kamchiliklarga:**

- ❖ uzoq muddatli proseduralar budget investisiyalariga nisbatan rejalashtirish;

- ❖ bozor sharoitida o'zgarish tufayli uzoq vaqt davomida prognozlashning murakkabligi;

- ❖ ba'zi sohalarida cheklovlar mavjudligi: tarif, lisenziya, va hokazo;

- ❖ yirik loyihalarda investorlarni jalb qilishning murakkabligi;

- ❖ infrastruktura loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarning mavjudligi;

- ❖ davlat-xususiy sheriklik sohasidagi normativ-huquqiy bazaning nomukammalligi.

Yuqoridagi ilmiy tahlil natijalaridan bilish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanishga ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab omillar mavjud. Tahlil davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun qanday qadamlar qo'yilishi va qanday muammolarga alohida e'tibor berilishi kerakligini aniq belgilash imkonini beradi.

Mazkur ilmiy izlanishlardan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklikni ham **huquqiy asoslarini** ham **iqtisodiy** jihatlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi istiqbolli takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

⁸ Тилабов Н.Т. Хусусийлаштириш ва давлат-хусусий шериклик. Ўқув қўлланма. –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриётматбаа уйи”. 2022. – 227 бет.

Xususan, **iqtisodiy jihatlarini yaqin kelajakda yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi asoslantirilgan ilmiy takliflar zarur hisoblanadi:**

birinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash sohalarini yanada kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik sohasida Qonunchilik bazasini yaratish, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish va ayrim loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish;

ikkinchidan, "**Konsessiya to'g'risida**"gi qonunga o'zgartirish va o'shimchalar kiritish. Konsessiya qonunchiligi doirasida konsessiya loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishni huquqiy tartibga solishga ta'sir qiluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi kerak;

uchinchidan, "**Sekyuritizasiya to'g'risida**"gi qonun qabul qilish. Bu o'z navbatida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ekspluatatsiya davrida sotish va sotib olish bilan bog'liq huquqlarni belgilashda hamda ushbu davr bilan bog'liq kelishmovchiliklarni hal etishda yordam beradi.

to'rtinchidan, hayotiylik sikli shartnomasini amalga oshirish.

Hayotiylik tsikli shartnomasi budget kamomadida davlat-xususiy sheriklikning ideal shakli bo'lib, hukumat budget investisiyalarini nazarda tutuvchi loyihalarda ishtirok eta olmaydi. Hayotiylik sikli shartnomasi aralash turdagi shartnoma bo'lib, u xizmat ko'rsatish shartnomasiga asoslanadi. Hayotiylik sikli shartnomasida boshqa turdagi shartnomalarning elementlari bo'lishi mumkin, masalan, ishonch shartnomasi. Bunday shartnoma bo'yicha ijrochi faqat obyekt ommaviy foydalanish uchun taqdim etilgan paytdan boshlab pul oladi.

beshinchidan, xususiy moliyaviy tashabbus modelini.

Xususiy moliyaviy tashabbus modelini - davlat xizmatlari va xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladigan ishlar bo'yicha shartnomalar, lekin xizmatlar iste'molchilar tomonidan emas, balki davlat tomonidan to'lanadi (masalan, jamiyatda yoritish bilan bog'liq loyihalarida, shifoxonalarda, maktablarda davlat uzoq muddatli shartnoma davlat kafolatlangan tartibini joylashtirish va xizmat ko'rsatish sifatiga qarab obektни ta'mirlash xarajatlarini to'laydi). Shu bilan birga, mulk va ta'minot huquqi xususiy tomonda qoladi. Shartnoma muddati oxirida davlat shartnomani uzaytirishi mumkin.

Shu munosabat bilan, konsessiya masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilikda ushbu turdagi shartnomani joriy etish imkoniyatini ko'rib chiqish kerak.

oltinchidan, maxsus moliyaviy kompaniyalar tashkil etish amaliyotini rag'batlantirish. Konsessiya mexanizmidan foydalangan holda keng miqyosli investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha investisiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy yordam talab qilinishi mumkin.

Ushbu masalaning mumkin bo'lgan echimi loyiha moliyalashtirish vositasidan foydalanishning ijobiy xalqaro amaliyoti bo'lishi mumkin, unda konsessioner shaxsida davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalangan holda muayyan loyihani amalga

oshirish uchun loyiha homiysi tomonidan yaratilgan maxsus moliyaviy kompaniya bo'lishi mumkin.

Uning moslashuvchanligi tufayli ushbu shakl beqaror iqtisodiyot sharoitida mablag' to'plashning samarali vositasidir. Loyihani moliyalashtirish vositasining o'ziga xos xususiyati loyihaning joriy va kelajakdagi pul oqimlarini barqaror ishlab chiqarish qobiliyatini baholashdan iborat bo'lib, bu oqimlarga xizmat ko'rsatish va qarzni qaytarish va loyihaga sarmoya kiritgan kapital daromadlarini to'lash uchun mablag'manbayi bo'lib xizmat qiladi.

yettinchidan, davlat xizmatchilari va xususiy sektor vakillarini tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash. Davlat-xususiy sheriklik investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun vosita sifatida rivojlanish bosqichida turibdi, shuning uchun ham davlat xizmatchilari va xususiy sektor vakillarining malakasini oshirish masalasini o'rganish zarur.

Shu munosabat bilan, davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida davlat-xususiy sheriklik sohasidagi seminarlar va treninglarni o'tkazilishini ko'rib chiqish va tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikning institutsional - huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar. Bular:

birinchidan, jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligining qaysi sohalarida davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish mumkinligini aniqlashtirish va uning zamonaviy mexanizmlarini yaratish;

uchinchidan, mazkur sohaga xususiy sektorlarni keng jalb qilish maqsadida davlat-xususiy sherikning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlashning samarali turlarini ishlab chiqish, ijtimoiy adolatli imtiyozlar va preferensiyalar yaratish va joriy qilish;

to'rtinchidan, mamlakatda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish xususiy tijorat loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositasi emas, balki jamoat xavfsizligi tizimini modernizatsiya qilish ekanligini nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish; beshinchidan, jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlashga doir milliy xususiyatlar va sharoitlar e'tiborga olingan holda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy qilish bo'yicha asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda jamoat xavfsizligini ta'minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish va uning istiqbollarini belgilash bugungi kunning o'ta dolzarb bo'lgan sohalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikning resurslarini to'g'ri tashkil etgan holda jamoat xavfsizligi tizimini zamonaviylashtirish istiqboldagi rejalar sifatida belgilanishi zarur.